

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH  
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Azimov Alisher Abdumajitovich*

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi*

*Biznesni boshqarish (Master of Business Administration-MBA)*

*Banking 23-02-guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Yurtimizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi, mahalliy xom-ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni yanada rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi ichki bozorini iste'mol tovarlari va chakana xizmatlar bilan to'ldirish kabi muommolarni hal qilish, ularni milliy va xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyaviy ehtiyojlarini qondirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu maqola kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotining bugungi holatini yoritib bergan.

**Аннотация:** одной из актуальных задач сегодняшнего дня является надлежащее становление и развитие малого бизнеса и предпринимательской деятельности в нашей стране, дальнейшее развитие переработки местного сырья и сельскохозяйственной продукции, решение таких вопросов, как наполнение внутреннего рынка Республики Узбекистан товарами народного потребления и розничными услугами, удовлетворение потребностей населения. их финансовые потребности через национальные и иностранные кредитные линии. Эта статья пролила свет на текущее состояние практики кредитования малого бизнеса.

**Abstract:** one of the urgent tasks of today is the proper establishment and development of small businesses and entrepreneurial activities in our country, the further development of the processing of local raw materials and agricultural products, solving issues such as filling the domestic market of the Republic of Uzbekistan with consumer goods and retail services, meeting their financial needs through national and foreign credit lines. This article has shed light on the current state of small business lending practices.

**Kirish**

Jahon amaliyotini kuzatadigan bo'lsak, rivojlangan va rivojlanib borayotgan ko'pgina davlatlarda iqtisodiyotning rivojlanishiga kichik biznes subyektlarini rivojlantirish orqali erishilgan. Buning asosiy sababi ularning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ichki va tashqi resurslardan oqilona foydalanib qondira olganligidir. Mamlakatimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib, dehqon va fermer xo'jaliklarini, xususiyl tadbirkorlarni yanada rivojlantirish, ularni texnika-texnologiyalar bilan ta'minlash, ularning faoliyatini yaxshilash uchun respublikamiz va xorijiy davlatlardan kreditlar ajratilmoqda. Bu esa bevosita yangi ish o'rinlariga bo'lgan

talab darajasini qondirishga, yalpi ichki mahsulotning sezilarli darajada oshishiga bevosita xizmat qiladi. Masalan, "kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish borasida qabul qilingan direktiv hujjatlar ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli tadbirlar kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar hajmining 2023 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'payishiga, 2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 15,9 trln. so'mdan oshishiga imkon berdi. Jumladan, mikrokreditlar hajmi 3,3 trln. so'mni tashkil etdi yoki bu ko'rsatkichning hisobot yili davomida 1,3 barobar o'sishi ta'minlandi. Tijorat banklari tomonidan ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2023 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobar ko'payib, 2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 1,6 trln. so'mga yetdi.

### **Muhokama va natijalar**

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur'atlarda rivojlantirish omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu soha bozor kon'yukturasi o'zgarishlariga tez moslasha olish, yangi ish o'rinlarini yaratish yo'li bilan aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini yaratish, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Avvalo biznes tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak; biznes - bu muayyan xizmat va mahsulotlarni amalga oshirishni (sotish) barpo etish yo'li bilan foyda (daromad) olish maqsadidagi sub'ektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi iqtisodiy faoliyatidir. o'zbekiston respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida» 25 may 2000 yil 69-II-sonli qonunida kichik biznes va tadbirkorlikka quyidagicha to'xtalib o'tilgan.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilgan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat. Kichik tadbirkorlik subyektlari quyidagilardir:

-yakka tartibdagi tadbirkorlik- yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishidir.; ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;


-yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;

-mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq

xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat- ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ellik kishi;

-fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan kichik korxonalar. Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko'p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik oborot hajmida ulushi eng ko'p bo'lgan faoliyat turi mezonlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlariga kiradi. "Tadbirkorlik", "kichik biznes" tushunchalari ko'p hollarda bozor iqtisodiyotiga bog'langan holda, uning unsurlari, unda samarali faoliyat yuritish vositalari sifatida talqin etilmoqda. Ayni paytda, bu tushunchalar umumiqtisodiy ya'ni bozor iqtisodiyotining muhim tayanchi bo'lgan tushunchalardan biridir, zero insoniyat va uning ehtiyojlarini qondirish zaruriyati vujudga kelibdiki, u o'z faoliyatidan, boshqalar bilan bo'lgan munosabatlari va bogliqliklaridan ko'proq, yaxshiroq, oldingidan ijobiyroq natija olishga intilib kelgan. Biroq, bu faoliyatlarning amalda keng qo'llanilishi, yanada rivojlanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida kengroq namoyon bo'la boshladi. Ularni mablag'ga bo'lgan talabini qondirish esa asosiy muommalardan bir hisoblanadi.

### Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturining tashkiliy-institutsional TUZILMASI



## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro kredit o'zaro bog'liq funksiyalarni bajarish orqali ikki yoqlama, ya'ni ijobiy va salbiy rol o'ynaganligi bois kichik biznes subyektlari faoliyati va umumiy iqtisodiyotda ahamiyatlidir. Xalqaro kreditning ijobiy roli kichik biznes subyektlari faoliyatida takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlanishi hamda uning kengayishi orqali ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining tezlashishida o'z aksini topadi. Bunda ularning o'zaro aloqasi aks etadi.

Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarga va pirovard oqibatda takror ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi bog'lovchi bo'g'in hamda uzatkich mexanizmi rolini o'ynaydi. Ishlab chiqarish o'sishining mahsuli bo'lgani holda xalqaro kredit bir vaqtning o'zida uning zaruriy sharti va katalizatori bo'lib ham hisoblanadi. U ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining baynalmilallashuvi, jahon bozorining shakllanishi hamda rivojlanishiga ko'maklashadi va xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi.

Birinchiidan, kredit mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Bu bilan bozordagi kon'yunkturani ushlab turish uchun qo'shimcha talab vujudga keladi. Kredit hisobiga amalga oshadigan tashqi savdo ayniqsa ishlab chiqarish va iste'molning uzun sikliga hamda yuqori qiymatga ega tovarlar uchun xalqaro me'yorga aylanadi. Importyor va eksportyorlar mahsulotning qimmatlashishi hamda jahon savdosida mashina va jihozlar ulushining oshishi sharoitida tashqi savdo kreditlarini ishlatishdan manfaatdordir. Xorijdagi korxonalar qurilishi ham import qilinayotgan, ayniqsa texnologik va energetik jihozlar uchun to'lanayotgan kredit hisobiga amalga oshiriladi.

Ikkinchiidan, xalqaro kredit xorijiy xususiy investitsiyalar uchun imtiyozli sharoitlarni yaratadi, chunki ushbu imtiyozlar kreditor mamlakat investorlariga taqdim etiladigan imtiyozlar bilan bog'liqdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1995-yil 26-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1996-yil 25-aprel.

3. O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi Qonuni 2005yil 25-aprel.

4. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni 2012-yil 2-may .

5. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y. 6. O‘zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to‘g‘risida»gi Qonuni. 2006-yil 15-sentabr.

7. “Kichik tadbirkorlik subyektlarini milliy valutada kreditlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom 2013-yil 27-dekabr.

8. “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 fevraldagi Qarori.

9. “Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2003- yil, 23- dekabr.

10. “Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-apreldagi Qarori.

11. “Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagi PQ-2844 Qarori.